

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat
Universiteti
Filologiya fakulteti o'zbek tili bo'limi*

REFERAT

Mavzu: FRAZEOLOGIZMLARNING USLUBIY TAVSIFI

Topshiruvchi: Muradova Roza

Qabullovchi: Kazakov Ilhom

Nukus - 2013

FRAZEOLOGIZMLARNING USLUBIY TAVSIFI

«Frazeologik stilistika» atamasi hamdo'stlik mamlakatlari tilshunosligida 60-yillardan paydo bo'ldi. Dastlab bu atama A.V.Kunin va V.L.Arxangelskiy asarlarida ishlatilgan. Keyinchalik bu atamadan boshqa tadqiqotchilar ham foydalanganlar. Jumladan, V.L.Arxangelskiy uslubiy jihatdan muvofiq va uslubiy nomuvofiq frazeologik variantlarni sistematzatsiya qilish bilan frazeologik stilistika shug'ullanishi lozimligini ta'kidlagan edi.

«Lingvistik stilistika muammolari» mavzusida o'tkazilgan ilmiy anjuman (1969) da A.V.Kunin «Frazeologik stilistikaning asosiy tushunchalari» degan ma'ruza bilan chiqish qilgan edi. Uning ta'kidlashicha, frazeologik uslubiyat umumiy uslubiyatning tarkibiy qismi bo'lib, frazemalarning uslubiy xususiyatlarini o'rganadi. Frazemalarning uslubiy tavsifi frazeologiyaning ham ob'ekti sanaladi.

Frazeologiyaning bu yangi bo'limi, ko'pgina olimlarning fikricha frazemalarning uslubiy qatlamlarini, ularning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini, frazemalarning uzual va okkazonal funksiyalarini frazeologik birlik (frazeologik birlik)lardan nutqda ijodiy foydalanish usullarini, frazeologiyaning adabiy til normasi va nutq madaniyati bilan bog'liq muammolarini tadqiq etish lozim. Frazeologik uslubiyatning qayd etilgan bunday muammolaridan olimlar diqqati ko'proq badiiy matnlarda frazeologik birliklarni individual-ijodiy qo'llanish usullarini aniqlashga qaratilgan edi. Bu sohada o'zbek tilshunosligida ham I.Qo'chqortoyev, E.A.Umarov, A.Mamatov, O.Abdunazarov, H.Qahhorova, A.Mamatov kabi olimlarning ishlari e'tiborga loyiq.

Jahon tilshunosligida frazemalarning uslubiy tavsifi muammosi hozirgi kunga qadar bir xil yechimga ega bo'lganicha yo'q, bu masala o'zbek tilshunosligida maxsus o'rganilmagan. Hozircha lug'atlarda berilayotgan frazemalar uchun uslubiy havolalar qo'yishning yagona tamoyillari ham ishlab chiqilmagan, o'zbek tilidagi frazemalarni uslubiy tavsiflash mezonlari ham aniqlanmagan. O'z vaqtida L.I.Royzenzon tomonidan aytilgan quyidagi fikr hozir ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda: «frazeologik birlik larni uslubiy jihatdan

tavsiflash leksemalarni uslubiy tavsiflash nisbatan ancha qiyinroq. Bu sohada aniq mezonlar bizda ham, chet elda ham ishlab chiqilmagan».

Frazemalarning uslubiy tarmoqlanishi masalalarini o'rganish til strukturasi chuqurroq tushunish uchungina xizmat qilib qolmay, oliy va o'rta maktablarda til o'qitish, leksikografik va frazeografik amaliyot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da frazeologik birliklarga izohli uslubiy havolalar ko'pincha berilmagan. Bundan o'zbek tilidagi barcha frazemalar neytral, uslublararo qo'llanish imkoniga ega, degan noto'g'ri xulosa kelib chiqadi. «O'zbek tilining izohli lug'ati» kabi normativ lug'atlarda frazemalarni uslubiy jihatdan baholash elementlarining bo'lmasligi bu lug'atning nutq madaniyatiga oid spravochnik sifatidagi qimmatini biroz pasaytiradi.

Shuningdek, o'zbek tilshunosligida frazemalarning uslubiy funksiyalari, ularning so'z, birikma va gaplar bilan semantik hamda uslubiy munosabati, iboralarning qo'llanish darajasi kabi qator masalalar ham o'zining tugal, asosli echimiga ega bo'lmagan.

Frazemalardan badiiy, publitsistik va og'zaki so'zlashuv nutqida ijodiy foydalanish masalalari, yuqorida ta'kidlanganidek, faqat muayyan yozuvchi yoki badiiy asar til misolida o'rganilgan, xolos. Lekin frazeologik birliklardan ijobiy foydalanish usullari muammosi tizim holda umumlashtirilmagan.

O'zbek tilshunosligida frazeologik me'yor, frazema qo'llash va nutq madaniyati, frazema va imlo, ibora va punktuatsiya kabi masalalar ham hali chuqur o'rganilmagan. Umuman olganda, «Frazema va me'yor» muammosi til haqidagi fanning ikki sohasi – frazeologiya va nutq madaniyati o'rtasida turuvchi muammolardan biri sanaladi, chunki bu muammo, bir tomondan, frazemalardan uslubiy maqsadda foydalanish masalalarining bevosita davomi bo'lsa, ikkinchi tomondan bu muammo o'zbek tilshunosligida shakllanish bosqichida turgan nutq madaniyatining asosiy muammolari qatoriga kiradi.

Mazkur monografiyaning keyingi boblarida frazeologik uslubiyatning yuqorida ta'kidlangan ana shu to'rt masalasini imkoniyatlarimiz darajasida tadqiq

etishga harakat qilamiz. Bu masalalarni o'rganish o'zbek tilining ilmiy frazeologiyasi va umumiy uslubiyatini shakllantirish uchungina emas, balki frazeografiya, leksikografiya va nutq madaniyatining konkret, amaliy muammolarini hal etish uchun ham zarur, deb hisoblaymiz.

Frazeologik birlik yoki ibora deyilganda tuzilishi jihatidan so'z birikmasi yoki gapga teng, umumlashgan ma'no anglatuvchi, komponentlari qisman yoki to'lasincha ko'chma ma'no ifodalovchi turg'un leksik-semantik birliklar tushuniladi.

Yuqorida ta'kidlaganidek, frazeologik birliklar stilistik ma'nosining ikkinchi komponenti uning funksional-uslubiy bo'yog'idir. Funksional-uslubiy bo'yoq, frazeologik birlikning qo'llanishini muayyan nutqiy doirlarda, uslublarda chegaralaydi. Ko'pincha frazeologik birlik u yoki – bu realiyani, hodisani ifodalab, baholabgina qolmay, muayyan nutq uslubi haqida signal beradi.

Funksional-uslubiy komponent frazeologik birlikning ekspressiv-baho komponentiga nisbatan frazeologik ma'no strukturasiga kamroq daxldordir. U frazeologik birlikning ma'no doirasidan tashqari turadi. Frazeologik birlik tasnifiga, sharhiga funksional-uslubiy komponent kam o'rinlardagina kiritiladi. Ma'lumki, lug'atlarda leksik birlik (so'z)larga berilgan izohlar, so'zning funksional yo'nalishidan qat'iy nazar, neytral uslubda beriladi. Lekin frazeologik birliklar izohi uchun bunday leksikografik qoida hamma vaqt ham to'g'ri bo'lavermaydi, chunki frazeologik birlikning ijobiy yoki salbiy baho ifodalash holati og'zaki-so'zlashuv uslubi yoki boshqa nutq uslubiga xosligi uning tasnifi, izohida ham o'z ifodasini topishi kerak. Masalan: «*ikki qo'lini burniga tiqib*» iborasining ma'nosini agar uning ekspressiv-baho va funksional-stilistik bo'yog'ini hisobga olmaganda, neytral uslubga xos so'zlar bilan «hech narsasiz, quruq qaytmoq» tarzida izohlash mumkin edi. «Izohli lug'at»da bu frazeologik birlikning izohi xuddi shunday «quruq, hech narsasiz» sifatida qayd qilingan ham lekin bu frazeologik birlikning mazmuniga og'zaki so'zlashuv uslubiga xos so'zlar qo'shilgan quyidagi izoh ko'proq mos keladi: «hech vaqosiz qaytmoq». Bu jihatdan mazkur iboraning Sh.Rahmatullayev lug'atida «quruqdan-quruq, evaziga

hech narsa ololmay» tarzida izohlanishi o‘rinlidir. «Uyg‘ur tilining frazeologik lug‘ati»da «hech nemisiz dak yerda oltirip kalmak» deb izohlanishi uning funksional-uslubiy tabiatiga biroz yaqinlashadi.

Frazeologik birliklarning funksional yo‘nalishini, ayniqsa, frazeologik sinonimlar izohida hisobga olish zarur, chunki funksional-uslubiy, ekspressiv jihatdan bir xil o‘lchovga ega emas. Misollar: «*Boshi qotdi*» iborasi «*o‘ylab-o‘ylab o‘yiga yetolmaslik*» iborasi bilan sinonimik munosabatdadir. Lekin bu iboralarning biri («*boshi qotdi*») uslubiy jihatdan neytral bo‘lsa, og‘zaki so‘zlashuvda ham, kitobiy uslublarda ham baravar qo‘llanish xususiyatiga ega bo‘lsa, keyingisi ko‘proq kitobiy uslublarga xoslangan. Lekin Sh.Rahmatullayev lug‘atida bu ikki ibora keltirilib, «uzoq o‘ylab ham aniq bir fikrga kela olmaslik», «uzoq o‘ylab, aniq bir fikrga kela olmaslik» tarzida bir xil izohlangan. Tilshunos olimlar frazeologik birliklarning funksional-uslubiy bo‘linishi (tarmoqlanishi) haqida gap ketganda ko‘pincha ularni leksik birlik - so‘zlar singari uslublararo, kitobiy, so‘zlashuv va oddiy so‘zlashuv tiplariga ajratadilar. Bunda frazeologik birliklarning so‘zlardan farqli holatdagi qo‘llanish xususiyatlari to‘la hisobga olinmagan ko‘rinadi.

«Uy», «suv», «non» kabi umumiste‘moldagi so‘zlar nol uslubiy bo‘yoqqa ega, ular ma’lum bir tushunchanigina ifodalab, qo‘shimcha emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lmagani uchun intellektual leksika deyiladi. Ular uslubiy, ekspressiv-bo‘yoqdorlik jihatidan neytral, funksional tomondan esa umumuslubiy yoki uslublararo xarakterga ega, chunki ular tilning barcha funksional uslublarida qo‘llanilishi mumkin, bunday umumiste‘molga oid so‘zlarni kitobiy, rasmiy uslublarda ham uchratish mumkin. Frazeologik birliklar orasida faqat ayrimlari («*ochiq xat*», «*ochiq ko‘ngil*», «*oq yo‘l bo‘lsin*», «*orasi buzilmoq*», «*oraga tushmoq*», «*oila qurmoq*», «*oila tebratmoq*», «*olam guliston*» kabilar) barcha uslublarda erkin qo‘llanish imkoniyatiga ega. Bu o‘z-o‘zidan tushunarli, chunki V.D.Devkin to‘g‘ri ta’kidlaganidek, frazeologiya sohasida sof neytrallikning bo‘lishi mumkin emas.

Bizningcha, frazeologik birliklarni funksional-stilistik bo'yoqdorligi jihatidan quyidagicha ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

a) muayyan uslubga qo'llanish jihatidan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar «qo'l ko'tarmoq», «domiga tushmoq», «rol o'ynamoq», «o'lik jon bo'lmoq», «javlon urmoq», «yoqasini chok etmoq», «oyog'idan olmoq», «maydonga tushmoq», «yetti uxlab tushiga kirmaslik», «xamirdan qil sug'urganday», «qo'li yengil», «kapalagi uchdi», «oyoq uchi bilan ko'rsatmoq» kabilar;

b) funksional jihatdan muayyan uslubga bog'liq bo'lmagan frazeologik birliklar: «ikki gapning birida», «jon olib jon bermoq», «oyog'i osmondan kelmoq», «popug'i pasayib qolmoq», «do'konidan el o'tmagan», «nog'orasiga o'ynamoq» kabilar.

Birinchi guruhdagi frazeologik birliklarni o'z navbatida kitobiy, so'zlashuv va oddiy so'zlashuv tiplariga ajratish mumkin.

1.1. Frazemalarning uslubiy ma'nosi va ma'no komponentlari

Ma'lumki, tildagi barcha elementlar nominativ-mantiqiy ma'no ifodalash bilan birga uslubiy bo'yoqdorlikka ham ega. Ular o'ziga xos «ekspressiv-atmosfera bilan o'ralgan» bo'ladi. Bu holat tilshunoslikda hozirga qadar turli xil nomlanib kelmoqda. Til elementlariga ironiya, tantanavorlik, hazil-mutoyiba, ishonmaslik, shubha kabi uslubiy nozikliklarni yuklovchi hodisani nomlashda olimlar «uslubiy bo'yoq», «uslubiy tonallik», «konnotatsiya» atamalaridan foydalanmoqdalar. Birgina «konnotatsiya» atamasining o'zi ham tilshunoslikda har xil ta'riflanayotir. Jumladan, O.S.Axmanova, N.M.Shanskiy, M.Tikotsiy kabi olimlar konnotativ element asosiy ma'noga qo'shimcha tarzda yuklanadi, shunga ko'ra, u til birliklarining semantik strukturasi kirmaydi, deb hisoblaydilar.

Tilshunoslikda frazeologik birliklarning ekspressiv-baholash va funksional-uslubiy bo'yoqdorligini uslubiy ma'no komponentlari sifatida tan olish; ular o'rtasidagi munosabat masalasiga doir turli xil qarashlar mavjud.

A.I.Molotkovning fikricha, frazeologik birliklarning ekspressiv-emotsional bo'yog'i ularning muayyan nutqiy uslublarda qo'llanishi bilan bog'liq emas: «Frazeologizmning ekspressiv-emotsional bo'yog'i ularni muayyan funksional uslubda qo'llash hamda o'zlaridagi uslubiy va tarixiy-zamonaviy tavsifi bilan bog'liq emas. Ibora og'zaki so'zlashuv, oddiy, eskirgan, dialektal kabi xususiyatlaridan qat'iy nazar, u yoki bu ekspressiv-emotsional bo'yoqni nutq jarayonida, qo'llanishda oladi».

Boshqa bir guruh olimlar esa bu ikki komponent bir-biri bilan uzviy bog'liq, ular bir butun holda frazeologik birlik semantik tuzilishida amal qiladi, deb ta'kidlaydilar.

Avval qayd qilganimizdek, bu ikki komponent (ikki bo'yoq) frazeologik birlikdagi bir hodisaning turli tomonlaridir. Ba'zan frazeologik birlikning ekspressiv-baho bo'yog'i uning funksional-uslubiy bo'yog'i bilan o'zaro aloqada bo'lib, ular o'rtasida sabab-oqibat munosabatlari yuzaga keladi, ya'ni biri ikkinchisini taqozo etadi, keltirib chiqaradi. Frazeologik birlik qanchalik yorqin ekspressiv-baho bo'yog'iga ega bo'lsa, u funksional-uslubiy jihatdan shunchalik chegaralangan bo'ladi (masalan, qiyoslang: so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan «*itday aqillamoq*», «*itday talamoq*», «*go'ringda to'ng'iz qo'pqur*», «*tishining kirini so'rmoq*» singari iboralar). Yoki salbiy baho ottenkasiga ega bo'lgan «*bozori o'tmadi*», «*o'zini bozorga solmoq*», «*zahrini sochmoq*» kabi frazeologik birliklar ko'proq so'zlashuv uslubi uchun xarakterli bo'lib qoladi.

Ko'p hollarda ikki baho ottenkasining qo'shilgan holati ko'zga tashlanmaydi, ular alohida-alohida, bir-birlari bilan bog'liq bo'lmagan holda amal qiladilar. Jumladan, ibora emotsional bo'yoqqa yoki ijobiy baholash ottenkasiga ega bo'lsa ham, hammasi kitobiy bo'lavermasligi mumkin, yoki aksincha, inkor, salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan frazeologik birlikni hamma vaqt so'zlashuv uslubiga xos deyish to'g'ri bo'lmaydi.

Funksional jihatdan muayyan uslubga bog'liq bo'lmagan frazeologik birliklar uchun emotsionallik va baholash xususiyati nisbatan kamroq xarakterlidir, lekin ularning ko'pchiligi (keng ma'noda) ekspressiv xususiyatga ega. Masalan:

«oq yo'l», «omon bo'ling», «yaxshi boring», «yaxshi yotib turing» kabi frazeologik birliklar ekspressivlik xususiyati bilan ajralib turadi. Bu tipdagi iboralardan, ya'ni so'zlashuv nutqi iboralaridan ayrimlari yuqori (ko'tarinki) xarakterga ega bo'lib, ma'qullash ottenkasini ifodalasa («yaxshi boring», «omon bo'ling» singari), qolganlari esa salbiy ottenkani ifoda etadi. Turli ekspressiv-emotsional baho xususiyatiga ega bo'lgan bunday frazeologik birliklar bir tipga, ya'ni muayyan uslubga xos bo'lmagan iboralar tipiga birlashadilar.

Ko'rinadiki, iboralar uslubiy ma'nosining ikki komponenti o'rtasidagi aloqa xilma-xildir. Shunga ko'ra, iboraning funksional uslubiy xoslanishini belgilashda uning ekspressiv-baho bo'yog'i har doim ham asosiy mezon bo'la olmaydi.

Frazemalarning emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligini aniqlashning eng muhim yo'li ularning semantik-stilistik va kontekstual metodlar asosida sinchiklab o'rganish, kontekstdagi ma'no qirralarini belgilashdir. Ammo «O'zbek tilining izohli lug'ati»da, prof. Sh.Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati», «O'zbek tilining frazeologik lug'ati», M.Sodiqovanning «Qisqacha o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at» kabi asarlarida frazemalarning ma'no doirasini aniqlash jarayonida unda qo'shimcha uslubiy baho momentlari borligi ko'pincha hisobga olinmaydi. Masalan, «ko'zi to'rt bo'ldi» iborasini olib ko'raylik. Bu frazeologik birlik «Izohli lug'at»da «nihoyatda intizorlik bilan kutdi» ma'nosiga ega ekanligi qayd qilingan. Sh.Rahmatullayev lug'atida esa bu frazeologik birlikning «ko'zlari to'rt bo'ldi», «ko'zi to'rt bo'lib», «ikki ko'zi to'rt», «to'rt ko'z bo'lib» variantlariga ega ekanligi qayd qilingan hamda «intizor bo'lmoq» ma'nosini ifodalashi ta'kidlangan. M.Sodiqova lug'atida esa bu iboraning ruscha tarjimasida «*vse glaza proglyadel; on jdal s neterpeniem; jdal ne dojdalsya, v smatival*» tarzida berilgan. Yuqoridagi uch leksikografik manbada bir frazeologik birlikning izohi farqli tomonlarga ega. Bu jixatdan «Izohli lug'at»da qayd etilgan «nihoyatda» semasi o'sha iboraning qo'shimcha stilistik ma'nosi sanaladi. Har uchala manbada ham o'sha iboraning uslubiy xoslanishi, ya'ni qaysi uslubda ko'proq qo'llanishi ham ta'kidlab ko'rsatilishi lozim edi. Endi xuddi shu iboraning ayrim turkiy tillardagi izohi bilan tanishaylik. «Qirg'iz tilining

frazeologik lug‘ati» da «*Ekki kuzu tort boduu*» («ikki ko‘zi to‘rt bo‘lmoq») iborasi keltirilib, unga «qandaydir bir narsani jon dili bilan tilamoq, zoriqib kutmoq» deb izoh berilgan. «Uyg‘ur tilining izohli frazeologik lug‘ati da «*to‘rt ko‘zi bilan (kutmoq)*» iborasi keltirilib, unga «intizorlik bilan» tarzida izoh berilgan. «Tatar tilining frazeologik so‘zligi»da «*ko‘z durt bo‘lu*» iborasiga «kutilmagan hol-xabardan, ajablanuvdan ko‘zlar zo‘r bo‘lib ochiluv», deb izoh berilgan, turkman tilida esa «*ko‘zi to‘rt bo‘lmoq*» iborasi «turmush qurmoq, uylanmoq» ma‘nosini ifodalaydi.

Ko‘rinadiki, leksikografik va frazeografik manbalarda frazeologik birliklar turlicha izohlanadi, frazeologik birliklarning uslubiy ma‘nosi (konnotativ xususiyati) qayd etilmaydi. Aslini olganda, frazeologik birliklarning uslubiy tomoni ta‘kidlanganda lug‘atlarda maxsus havolalar, belgilar qo‘llanilishi lozim. Lekin turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tili frazeologik birliklari izohli lug‘atida hozirgi kunga qadar bunga ko‘pincha amal qilinmaydi.

Masalan, «Izohli lug‘at»da frazemalar rombik bilan berilgan, ularning ayrimlari esa uslubiy (kitobiy, so‘zlashuv tili singari) havolalar bilan ta‘minlangan. Jumladan, «*ko‘zi qattiq*» iborasining «kishiga tikilib» qaraydigan, uyalmaydigan, xayosiz» ma‘nolari qayd qilingan, shu bilan birga, unga s.t. 9 so‘zlashuv tiliga xos) degan havola ham qo‘yilgan. Sh.Rahmatullayev lug‘atida esa bu frazeologik birlik qayd etilmagan. M.Sodiqova lug‘atida «*ko‘zi qattiq*» iborasi «u nego naglʼe (besstʼdnʼe) glaza» deb tarjima qilingan va neodobr. (neodobritelno) degan belgi qo‘yilgan.

Ba‘zan frazeologik birliklarning emotsional-baho bo‘yog‘i lug‘atlarda ularni izohlash tarkibiga kiritiladi (bu holat frazeologik birlikning uzual, lisoniy xususiyati bilan ham bog‘liq). Masalan, A.Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati»da «*qazo qilmoq*» iborasi oddiy so‘zlashuv, asosan katta yoshdagi kishilarga nisbatan va vafot etish vaqtlarida, uni boshqalarga xabar qilishda qo‘llanishi ta‘kidlangan. «*Nobud bo‘lmoq*» iborasi ham qo‘llanish jihatdan oddiy so‘zlashuvga xos, lekin u asosan go‘daklarga nisbatan qo‘llanadi. Endi bu ikki iboraning «Izohli lug‘at» dagi izohi bilan tanishaylik: «*Qazo qilmoq*» -

o'lmoq, vafot etmoq. «*Nobod bo'lmoq*», «halok bo'lmoq, o'lmoq». Ko'rinadiki, «Izohli lug'at»da har ikkala ibora izohida ularning qo'llanish xususiyati, uslubiy xoslanishi ochib berilmagan.

Shunisi muhimki, eng dastlabki nashr etilgan «O'zbekcha-ruscha lug'at»larda ham frazeologik birliklar talqinida ularning uslubiy aspekti lisoniy izoh tarkibiga kiritilgan edi.

Umuman olganda, so'zda bo'lgani singari, frazeologik birliklarda ham mantiqiy nominativ ma'no bilan birga ekspressiv-stilistik bo'yoqdorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda semasiologiyaga oid tadqiqotlarda «stilistik ma'no», «til birliklaridagi umumiy-emotsional baho yoki ekspressiv ma'noning ifodalanishi» kabi atamalar qo'llanmoqda. T.G.Vinokur esa «stilistik konnotatsiya» atamasidan foydalangan. D.N.Shmelev leksik va stilistik ma'nolarni o'zaro qiyoslab, individual, sof leksik ma'noni grammatik va ekspressiv stilistik elementlar ajratilgandan keyingi «qoldiq» deb hisoblaydi. T.G. Vinokur esa bu fikrni davom ettirib, shunday yozadi: «Tadqiqotning semantik-uslubiy yo'nalishida so'z (so'z birikmasi, konstruktsiya)ning umumiy semantikasiga qo'shiladigan stilistik ma'noni «qoldiq», aniqrog'i «qo'shimcha» deb hisoblash mumkin.

Ko'rinadiki, uslubiy ma'no inson ongining ekspressiv-baholash faoliyati mahsuli bo'lib, so'z va frazeologik birlikning tushuncha ifodalash xususiyati bilan uzviy bog'liqdir. So'z va iboraning denotativ hamda konnotativ ma'nolarga ega ekanligi ularning badiiy tasvirida asosiy vositalardan biri sifatidagi rolini belgilaydi.

Shunday qilib, bizningcha, konnotativ, uslubiy bo'yoq, uslubiy ma'no atamalari bir tushunchani, bir lisoniy hodisani ifodalaydi. Ularni ma'nodosh atamalar sifatida qo'llash mumkin. Lekin ayrim uslubshunoslar bu atamalardagi farqli tomonlarni aniqlashga ham intilmoqdalar, bunday intilishlar hozircha yaxshi natija berayotgani yo'q.

Frazeologik birliklarning funksional yo'nalishini, ayniqsa, frazeologik sinonimlar izohida hisobga olish zarur, chunki ular funksional-uslubiy, ekspressiv

jihatdan bir xil o'lchovga ega emas. Masalan: «*boshi qotdi*» iborasi «o'ylab-o'ylab o'yiga etolmaslik» iborasi bilan sinonimik munosabatdadir. Lekin bu iboralarning biri («*boshi qotdi*») uslubiy jihatdan neytral bo'lsa, og'zaki so'zlashuv ham, kitobiy uslublarda ham baravar qo'llanish xususiyatiga ega bo'lsa, keyingisi ko'proq kitobiy uslublarga xoslangan.

Tilshunos olimlar frazeologik birliklarning funksional-uslubiy bo'linishi (tarmoqlanishi) haqida gap ketganda ko'pincha ularni leksik birlik – so'zlar singari uslublararo, kitobiy, so'zlashuv va oddiy so'zlashuv tiplariga ajratadilar.

«*Uy*», «*suv*», «*non*» kabi umumiste'moldagi so'zlar nol uslubiy bo'yoqqa ega, ular ma'lum bir tushunchanigina ifodalab, qo'shimcha emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lmagani uchun *intellektual leksika* deyiladi. Ular uslubiy, ekspressivlik-bo'yoqdorlik jihatidan neytral, funksional tomonidan esa umumuslubiy yoki uslublararo xarakterga ega, chunki ular tilning barcha funksional uslublarida qo'llanilishi mumkin. Bunday umumiste'molga oid so'zlarni kitobiy, rasmiy uslublarda ham uchratish mumkin.

Frazeologik birliklar orasida faqat ayrimlari («ochiq xat», «ochiq ko'ngil», «oq yo'l bo'lsin», «orasi buzilmoq», «oraga tushmoq», «oila tebratmoq», «olam guliston» kabilar) barcha uslublarda erkin qo'llanish imkoniyatiga ega. Bu o'z-o'zidan tushunarli, chunki V.D.Devkin to'g'ri ta'kidlanganidek, frazeologiya sohasida sof neytrallikning bo'lishi mumkin emas.

Bizningcha, frazeologik birliklarni funksional-stilistik bo'yoqdorligi jihatidan quyidagicha ikki guruhga ajratish maqsadga muvofikdir:

a) muayyan uslubga qo'llanish jihatidan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar: «*qo'l ko'tarmoq*», «*domiga tushmoq*», «*rol o'ynamoq*», «*o'lik jon bo'lmoq*», «*javlon urmoq*», «*yoqasini chok etmoq*», «*oyog'idan olmoq*», «*maydonga tushmoq*», «*xamirdan qil sug'urganday*», «*qo'li engil*», «*kapalagi uchdi*», «*oyoq uchi bilan ko'rsatmoq*» kabilar;

b) funksional jihatdan muayyan uslubga bog'liq bo'lmagan frazeologik birliklar: «*ikki gapning birida*», «*jon olib jon bermoq*», «*oyog'i osmondan kelmoq*», «*do'konidan el o'tmagan*», «*nog'orasiga o'ynamoq*» kabilar.

Birinchi guruhdagi frazeologik birliklarni o‘z navbatida kitobiy, so‘zlashuv va oddiy so‘zlashuv tiplariga ajratish mumkin.